

25-Aprel, 2026-yil

AHMAD HOSHIMIYNING “JAVOHIR UL-BALOG‘A” ASARIDA JUMLA
INSHOIYYANING EMOTSIONAL VA NUTQIY IFODA VOSITASI SIFATIDA
QO‘LLANILISHI

Zayniddin Hanifa Hasan

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik oliy maktabi

Magistratura 1-kurs lingvistika(arab) guruhi talabasi

Tel: (94) 663-13-83, E-mail: hanifa.zayniddin@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dots. Begmatova Buzahro

Annotatsiya: *Mazkur maqola arab balog‘at ilmining muhim tushunchalaridan biri bo‘lmish jumla inshoiyyaning — ya‘ni o‘ziga nisbatan rostlik yoki yolg‘onlik hukmi berilmaydigan gap turining — nutqiy va emotsional ifoda vositasi sifatidagi ko‘p qirrali tabiatini Ahmad Hoshimiyning “Javohir ul-balog‘a” asari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan.*

Maqolada jumla inshoiyya ikki asosiy turga — talabiy va g‘oyri talabiy insho‘ga — bo‘linishi nazariy jihatdan asoslanib, talabiy inshoiyyaning beshta shakli: buyruq (الأمر), inkor (النهي), so‘roq (الاستفهام), orzu-istak (التمني) va undov (النداء) alohida-alohida ko‘rib chiqilgan. Har bir tur uchun birlamchi (lug‘aviy) ma‘nolar bilan bir qatorda ikkilamchi (balog‘iy) ma‘nolar ham keng tahlil qilingan: buyruq gapdan duo, iltimos, maslahat, tahdid va ta‘jub anglanishi; inkor gapdan g‘amxo‘rlik, orzu-istak va tahqirlash ifodalanishi; so‘roq gapdan taqrir, tasviya, tashviq va masxaralash kabi ma‘nolar kelib chiqishi misollar orqali isbot etilgan.

Tayanch so‘zlar: *jumla inshoiyya, talabiy insho, balog‘at ilmi, buyruq gap, inkor gap, so‘roq gap, orzu-istak, undov, ikkilamchi ma‘no, Ahmad Hoshimiy, arab tili pragmatikasi.*

إنشاء so‘zi lug‘atda “tuzish”, “bino qilish”, “ijod qilish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Ma‘oniy ilmida esa bu so‘z jumlaning ikkinchi turiga nisbatan qo‘llaniladi va u jumla al-inshoiy deb ataladi. Ahmad Hoshimiy unga quyidagicha ta‘rif beradi¹⁶:

ما (الكلام) لا يَحْتَمِلُ الصِّدْقَ وَالكَذِبَ إِذَاتَهُ

○ – **rostlik yoki yolg‘onlik hukmi berilmaydigan kalom.**

Inshoiy gap so‘zlovchi nutqidagina hosil bo‘ladi: biror kishiga لا تَكْتَبْ! (Yozma!) deb buyruq berilsa, bu jumlagi nisbatan rostlik yoki yolg‘onlik hukmi berilmaydi va undan anglashilgan ish-harakat so‘zlovchi uni aytgan vaqtidagina vujudga keladi. Masalan, “افعل” (“qil”) deb amr qilish, “لا تفعل” (“qilma”) deb qaytarish, “ليت” (“koshki”)da istak bildirish, “استفهام” (savol berish)da tushunishni talab qilish, “يا” (“ey!”)da murojaat qilish. Bularning barchasi faqat nutq vaqtida yuzaga chiqadi.

¹⁶ أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبدیع. بيروت لبنان. 2004. ص. 69.

Inshoiy jumla ikki qismga bo‘linadi:¹⁷

1. الطلبي – “talabiy”
2. غير طلبي – “g‘oyri talabiy” (talabiy bo‘lmagan insho)

Talabiy insho – talab vaqtida (ya’ni nutq vaqtida) mavjud bo‘lmagan narsani vujudga kelishini, mavjud bo‘lishini yoki hosil bo‘lishini so‘raydigan gapdir. Ya’ni, bu so‘zlovchi tomonidan biror narsani talab qilish yoki tinglovchidan ma’lum javobni kutish maqsadida ishlatiladigan gap shakllaridir. U doimiy ravishda tinglovchiga qaratilgan murojaat bo‘lib, **talab** yoki **istak**ni bildiradi. Talabiy inshoiy jumla esa o‘z o‘rnida 5 xil bo‘ladi:

1. الأمر – Buyruq
2. النّهي – Inkor
3. الإستفهام – So‘roq
4. التّمنيّ – Orzu-istak
5. النّداء – Undov

1. **الأمر (Buyruq)**. Arab tili grammatikasida buyruq gap fe’lni buyruq mayliga qo‘yish orqali yasaladi. Buyruq fe’llari, asosan, ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi va u jazm holatidagi fe’lning (ya’ni hozirgi-kelasi zamon fe’lining oxirgi harakati sukun holatida bo‘lishi) old qo‘shimchasini tushurib qoldirish orqali yasaladi: تُكَمِّلُ (tugatyapsan) → تُكَمِّلُ → كَمَّلَ (tugat). I bob fe’llaridan buyruq mayli hosil qilishda, fe’ldagi old qo‘shimcha tushib qolishi natijasida, so‘z boshida bir bo‘g‘inda ikki undosh yonma-yon kelib qolishi kuzatiladi. Masalan, I bob كَتَبَ (yozmoq) fe’lida xuddi shu holat kuzadiladi: تَكْتُبُ → تَكْتُبُ → كَتَبَ. Bunday holatni bartaraf etish uchun so‘z boshiga vaslali hamza qo‘shilib bo‘g‘in ikkiga ajratiladi. Bunday hamzaning harakati I bob fe’lining o‘rta o‘zagidagi undoshining hozirgi-kelasi zamon harakati bilan belgilanadi. Agar o‘rta o‘zak undoshining harakati ُ (damma) bo‘lsa, hamzaning ham harakati shunday bo‘ladi. Agar o‘rta o‘zak harakati َ (fatha) yoki ِ (kasra) bo‘lsa, hamzaning harakati kasra bo‘ladi¹⁸. Birinchi va uchinchi shaxs fe’lidan amr yasalganda, fe’lning jazm shakli oldiga ل qo‘shiladi: لِنَكْتُبُ (yozaylik), لِيَجْلِسُوا (o‘tirsinlar). Aslida, tom ma’noda bu shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berilmaydi. Mazkur qoida bilan yasalgan amrdan anglashilgan ma’no esa buyruq emas, balki taklif yoki undov ma’nolarini bildirishi mumkin.

اسمُ فعل الأمر – shaklan ism ko‘rinishida ammo, ma’no jihatidan buyruq fe’lini ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

صه، حيّ، هَلَمْ، هَيَّا، عَلَيْكَ، آمِينَ (jim bo‘l, bo‘laqol, kelaqol, qani tezroq, senga farz, omin)

المصدر النائب علي فعل الأمر – masdar noaniq (nakira) va nasb holatda bo‘lishi talab etiladi: صَبِرًا (Sabr qil!) (Yordam ber!)

Yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari المضارع (hozirgi kelasi zamon) fe’li bilan yasalgan jumla orqali ham buyruq ma’nosini bildirish mumkin. Bu holatda jumlada buyruqqa dalolat qiluvchi hech qanday omil ko‘rinmasa ham, notiq intonatsiya orqali jumlaning buyruq shakliga o‘zgartirishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi o‘z talabalariga vazifa

¹⁷ أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 69.

¹⁸Abdujabborov A. Arab tili. –T.: “Toshkent Islom Universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. 203-204-betlar.

25-Aprel, 2026-yil

berayotib, التالي (Keyingi dars uchun barchangiz insho yozib kelasiz.) deb aytgan jumlasida buyruqqa ishora qiluvchi hech qanday omil mavjud ema, ammo kontekstdan uning talabalarga nisbatan buyruq ekanli ma’lum bo’ladi.

Buyruq gapdan anglashilgan birlamchi ma’no tinglovchidan ish-harakatni amalga oshirish majburan talab etilishini anglatadi. Uning ikkilamchi ma’nolaridan ba’zilari quyidagilardan iborat:

I. **Duo.** Qur’oni Karimda kelgan duolarning aksariyati buyruq yoki inkor shaklda kelgan:

﴿فَتَنَسَّمَ ضَاحِكًا مِّن قَوْلِهَا وَقَالَ رَبِّ أَوْزِعْنِي أَنْ أَشْكُرَ نِعْمَتَكَ الَّتِي أَنْعَمْتَ عَلَيَّ وَعَلَىٰ وُلْدِي وَأَنْ أَعْمَلَ صَالِحًا تَرْضَاهُ وَأُدْخِلْنِي بِرَحْمَتِكَ فِي عِبَادِكَ الصَّالِحِينَ﴾ (19)

Bas, u uning so‘zidan tabassum qildi va: «Robbim, meni O‘zing menga va ota-onamga bergan ne‘matlaringga shukr etishimga va sen rozi bo‘ladigan solih amallar qilishimga muassar etgin. O‘z rahmating ila meni solih bandalaringga qo‘shgin», dedi¹⁹.

II. **Iltilimos.** Ushbu so‘rov shakli so‘zlovchi tinglovchi bilan bir xil darajada yoki so‘zlovchidan yoshi va maqomi pastroq bo‘lgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin: أعطني (Birodar, qalamni uzatib yuboring.) الأخ القلم أيها (Bir oz to‘xta, meni tark etma, meni yolg‘iz tashlab ketma, chunki men sendan boshqa hech kimni tanimayman.)²⁰

III. **Irshod (maslahat).** Odatda kundalik muloqot jarayonida insonlar bir-birlariga maslahat bersalar, jumlaning tuzilishi buyruq shaklida bo‘ladi:

﴿يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا إِذَا تَدَايَنْتُمْ بِدِينٍ إِلَىٰ أَجَلٍ مُّسَمًّى فَاكْتُبُوهُ وَلْيَكْتُب بَيْنَكُمْ كَاتِبٌ بِالْعَدْلِ﴾ (2:282)

Ey iymon keltirganlar! Ma’lum muddatga qarz oldi-berdi qilgan vaqtingizda, uni yozib qo‘ying. Orangizda bir yozuvchi adolat bilan yozsin²¹.

IV. **Ta’jub.** Bir inson o‘z hayratini izhor qilish uchun jumlaning buyruq maylida tuzilishi mumkin. Masalan, bir inson o‘z do‘stining otasiga nisbatan qo‘pol munosabatidan hayratga tushib, eshitgan narsasiga ishonolmasdan quyidagicha nido qilishi mumkin: أنظر إلى ما قلت! (O‘z otangga nima deganingga bir nazar sol!)

Yuqorida keltirilgan ma’nolardan tashqari muallif yana o‘zlikni izhor qilish, ijozat berish, orzu-istakni bildirish, kamsitish, davomiylik va odobga chaqirish kabi ma’nolarni ham sanab o‘tadi.

2. **النهي (Inkor).** Bunda tinglovchidan biror narsadan yoki ish-harakatdan voz kechishni (majburan) talab qilish tushuniladi. Inkori gap hosil qilinishi uchun hozirgi-kelasi zamon fe’liga لا yuklamasi qo‘shiladi va u ikki xil bo‘lishi mumkin:

لا الناهية (la nahiya) va لا النافية (la nafiya).

لا الناهية hozirgi-kelasi zamon fe’liga qo‘shilganda fe’lning oxiridagi ن (nun) tushib qoladi: لا تكتبوا – تكتبون (yozyapsizlar/yozasizlar - yozmanglar). لا النافية esa hozirgi-kelasi zamondagi bo‘lishli fe’lni bo‘lishsiz fe’lga aylantiradi va bunda fe’l ko‘rinishida hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi: لا تكتبون – تكتبون

¹⁹ Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 4-juz, 296-bet.

²⁰ مصطفى لطفى منفلوتى. النظرات. المملكة المتحدة. 2017. ص.48.

²¹ O‘sha asar.- 1-juz, 281-bet.

yozmayapsizlar/yozmaysizlar). Bir qarashda bunda inkor ma’nosi emas, shunchaki ish-harakatning amalga oshmasligi haqida xabar berilayotgandek ko‘rinishi mumkin. Biroq لا النافية orqali yasalgan fe’l arab tili grammatikasi nuqtayi nazaridan inkor ma’nosini bermasa ham, balog‘iy jihatdan kontekstdan kelib chiqib inkor ma’nosini anglatishi mumkin.

Ba’zida لا النافية orqali yasalgan fe’ldan anglashilgan buyruq inkor ma’nosi لا الناهية orqali yasalgan fe’ldan ham kuchliroq, samaraliroq ifodalanishi mumkin. Buni misol bilan ko‘rib chiqsak, yana ham tushunarliroq bo‘ladi: o‘qituvchining talabalariga qarata aytgan gapi: لا تتركوا الفصل حتى تسمع رنين الجرس (Qo‘ng‘iroq ovozini eshitmaguningizcha dars xonasini tark etmang.) Xuddi shu jumla bo‘lishsiz fe’l orqali ifodalanib, buyruq inkor ma’nosini ifodalashi mumkin va bundan anglashilgan ma’no, ya’ni o‘quvchilarning xonadan chiqmasliklarini talab qilish kuchliroq va ta’sirliroq bo‘lishi mumkin: لا تتركون الفصل حتى تسمع رنين الجرس (Qo‘ng‘iroq ovozini eshitmaguningizcha dars xonasini tark etmaysizlar.)

Inkor ham buyruq kabi kishidan biron-bir narsani talab qilish (inkorda ish-harakatni bajarmaslikni talab qilish) bo‘lganligi sababli bu ikkisining ikkilamchi ma’nolari ham bir biriga o‘xshab ketadi. Inkor gapdan tushunilishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi ma’nolar esa quyidagilardan iborat:

I. **Duo.** Xuddi buyruq gap singari inkor ham duo ma’nosini ifodalashi mumkin:

﴿ رَبَّنَا لَا تُؤَاخِذْنَا إِنْ نَسِينَا أَوْ أَخْطَأْنَا رَبَّنَا وَلَا تَحْمِلْ عَلَيْنَا إصْرًا كَمَا حَمَلْتَهُ عَلَى الَّذِينَ مِنْ قَبْلِنَا رَبَّنَا وَلَا تُحَمِّلْنَا مَا لَا طَاقَةَ لَنَا بِهِ ﴾ (2:286)

*Ey Robbimiz, agar unutsak yoki xato qilsak, (iqobga) tutmagin. Ey Robbimiz, bizdan oldingilarga yuklaganga o‘xshash og‘irlikni bizga yuklamagin. Ey Robbimiz, bizga toqatimiz yetmaydigan narsani yuklamagin*²².

II. **Iltilos.** Buyruq gap kabi inkorning ushbu so‘rov shakli so‘zlovchi tinglovchi bilan bir xil darajada yoki so‘zlovchidan yoshi va maqomi pastroq bo‘lgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin:

يا أخي، لا تتكاسل! إنها حقا رذيلة سيئة (Ey birodar, dangasa bo‘lma! Bahaqqi, bu juda yomon illatdir.)

III. **Irshod (maslahat).** Odatda kundalik muloqot jarayonida insonlar bir-birlariga maslahat bersalar, jumlaning tuzilishi buyruq yoki inkor shaklida bo‘lishi kuzatiladi: أيها الأباء، لا تسمحوا لأطفالكم بمشاهدة البرامج التلفزيونية العنيفة (Ota-onalar, farzandlaringizga televizorda zo‘ravonlik ko‘rsatuvlarini ko‘rishiga yo‘l qo‘ymang.)

IV. **Tahqirlash.** Qadimda arab xalqi uchun jasorat, mardlik va boshqa oliyjanob xislatlarga ega bo‘lish qabilalar orasida hurmat-e’tibor qozonishga sabab bo‘lgan. Umar r.a. davrlarida bir shoirning quyidagi bayti boshqalar tomonidan tahqir, deb qabul qilingan:

دَعِ الْمَكَارِمَ لَا تَرْجُلْ لِبُعَيْتِهَا وَأَفْعُدْ فَإِنَّكَ أَنْتَ الطَّاعِمُ الْكَاسِي (Oliyjanob fazilatlarni tark et va ular ortidan quvma. Shunchaki o‘tir, bahaqqi sen taom yeyuvchi va kiyim kiyuvchisan.)

V. **Orzu-istak.** Arab she’riyatida inkor orqali orzu-istak ifodalanishi ko‘p kuzatiladi:

²² Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 1-juz, 291-bet.

يا لَيْلَةُ الأُنسِ لا تَنْقُضِي

(Ey sevgi kechasi, tugab qolma!)
يا لَيْلُ طُلِّ يا نومُ رُلِّ يا صُبْحُ قَفِّ لا تَطْلُعْ
(Ey tun, uzunlash! Ey uyqu, uzoqlash!
Ey tong, to‘xta, yorishma!)

Berilgan ikki she’riy jummalarda buyruq hamda inkor orqali shoirning tunni uzunroq davom etishini orzu qilishi, ushalmas istagi ifoda etilgan. Bunda tinglovchiga ayon bo‘ladiki, tun, uyqu va tongga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berishning imkoni yo‘q va ular tabiiy sodir bo‘luvchi tabiat hodisalaridir va shu sababdan ularga qarata talab qilingan ish-harakat (*tugab qolma, uzunlash, uzoqlash, to‘xta, chiqma*) shoirning ushalmas orzu-istagidir, xolos.

VI. *I’tinas (G‘amxo‘rlik)*. Bu ma’no quyidagi oyati karimada o‘z aksini topishini ko‘rishimiz mumkin:

﴿ إِذْ هُمَا فِي الْغَارِ إِذْ يَقُولُ لِصَاحِبِهِ لَا تَحْزَنْ إِنَّ اللَّهَ مَعَنَا ﴾ (9:40)

*Ular ikkovlon g‘orda turganlarida, u sherigiga, xafa bo‘lma, Alloh, albatta, biz bilan, dedi*²³.

3. *الإِسْتِفْهَام (So‘roq)*. So‘roq jumla orqali so‘zlovchi tinglovchidan o‘ziga noma’lum bo‘lgan narsa yoki voqea-hodisa haqida ma’lumot olishni maqsad qiladi. Arab tili grammatikasida so‘roq gaplar quyidagi so‘roq so‘zlari (yuklamalari) orqali hosil qilinadi:

أ، هل، ما، متى، أيّان، كيف، أين، أنى، كم، أيّ

Ahmad Hoshimiy so‘roq gapni uch turga ajratadi²⁴:

a) Tasvirlash yoki tasdiqlash talab qilinadigan so‘roq gap bo‘lib, u ا (hamza) yordamida yasaladi;

b) Faqat tasdiqlash talab etiladigan so‘roq gap bo‘lib, هل so‘roq yuklamasi orqali yasaladi;

c) Faqat tasvirlash talab etiladigan so‘roq gap bo‘lib, ما، متى، أيّان، كيف، أين، أنى، كم، أيّ so‘roq olmoshlari orqali yasaladi;

Shu o‘rinda tasdiqlash (التَّصْدِيق) va tasvirlash (التَّصْوُّر) deyishdan nima maqsad qilinishiga izoh berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar berilgan savolga “ha” yoki “yo‘q” javobi talab etilsa, bu so‘roq gap hisoblanadi. Masalan,

هل أنت طالب؟ (Sen talabamisan?) Bu savolga faqatgina “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mumkin va shu sababdan u tasdiqlashni talab etuvchi so‘roq gap hisoblanadi.

so‘roq gapda esa, berilgan savolga aniqlik kiritilgan holda tasvirlash orqali javob berish talab etiladi. Misol uchun, biror kishi أحمد معلم أم سعيد؟ (Ahmad o‘qituvchimi yoki Saidmi?) deb so‘rasa, unga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berish mantiqsizlik bo‘ladi. Balki, savolda so‘ralgan ikki kishidan birini tanlash orqali (Ahmad yoki Said) yoki boshqa inson ismini aytish bilan aniqlik kiritish to‘g‘ri javob sifatida olinadi.

²³ Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsihi Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 2-juz, 528-bet.

²⁴ أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 78.

25-Aprel, 2026-yil

II. *Tashviq* (التَّشْوِيق). تشويق so‘zi شَوْق fe‘lining masdari hisoblanib, “insonda qiziqish uyg‘otish” ma’nosini bildiradi. Masalan, هل أدلك على تجارة أفضل التي ستحقق لك النجاح؟ (Sizga muvaffaqiyat keltiradigan eng yaxshi tijoratga yol ko‘rsataymi?) jumlasida so‘zlovchining asosiy maqsadi uni tinglayotgan insonni qiziqtirish va ko‘zda tutilgan narsaga jalb qilishdan iborat. Bunday so‘roq gaplar savdo-sotiq jarayonida iste’molchilarni jalb qilish maqsadida keng qo‘llaniladi.

III. *Masxaralash* (التَّهْكُم). Bir insonni kamsitish maqsadida so‘roq gap ishlatilishi mumkin:

أعقلك يسوغ لك أن تفعل كذا؟ (Aqling seni shunday qilishga yo‘l qo‘ydimi?) Jumlada keltirilgan savol orqali bir insonni yerga urib, uni kaltafahm deya masxaralash asosiy maqsad qilib olinganligi kontekst orqali tinglovchiga ayon bo‘ladi.

Bundan tashqari, so‘roq gaplar *qo‘rqitish, tahdid qilish, tanbeh berish, tahqirlash, istehzo qilish, kinoya, tushunishga harakat qilish* (الإستنباط), *afsus-nadomat* kabi ikkinamchi ma’nolarni ham bildirishi mumkin.

4. *Orzu-istak* (الرَّغْبَةُ). Inshoiy gapning keyingi turi bu ushalihi kutilmaydigan orzu-istak hisoblanadi. Ahmad Hoshimiy o‘z asarida الرَّغْبَةَ ni amalga oshish-oishmasligi ehtimoliga qarab ikki turga bo‘lgan:

a) hech qachon amalga oshmaydigan orzu-istak (مُسْتَحِيل)

Misol uchun, quyidagi baytda shoir yoshligi qaytib kelishini orzu qilishini bayon qiladi va barchaga ma’lumki, buning aslo iloji yo‘q:

ألا ليت الشباب يعود يوماً فأخبره بما فعل المشيب²⁶

Eh, qani endi yoshlik bir kun qaytib kelsa,

Unga keksalik nimalar qilganini aytib bersam.

b) amalga oshishi mumkin, ammo sodir bo‘lishi dargumon orzu-istak (مُمْكِن)

﴿ قَالَ الَّذِينَ يُرِيدُونَ الْحَيَاةَ الدُّنْيَا يَا لَيْتَ لَنَا مِثْلَ مَا أُوتِيَ قُورُونُ إِنَّهُ لَذُو حَظٍّ عَظِيمٍ ﴾

Hayoti dunyoni xohlaydiganlar: “Qani endi bizga ham Qorunga berilgan narsadan bo‘lsa edi. Haqiqatda u ulug‘ nasiba egasidir”, dedilar²⁷.

Bunday istakning amalga oshish ehtimoli past bo‘lsa ham, agar Alloh xohlasa, o‘zi istagan bandasiga dunyo mulkini in’om qilishi mumkin.

الرَّغْبَةُ jumlasini asosan لَيْتَ yordamchi yuklamasi orqali yasaladi va u asl vosita hisoblanadi. لَيْتَ yuklamasi, asosan, umidsiz orzu-istakni ifoda etadi. Ahmad Hoshimiyning ta’kidlashicha, balog‘iy jihatdan ba’zida u amalga oshishiga umid qilish ma’nosini ham berishi mumkin:

فيا لَيْتَ ما بَيْنِي وَبَيْنَ أَحَبَّتِي مِنْ الْبُعْدِ ما بَيْنِي وَبَيْنَ الْمَصَائِبِ

Qandi endi sevgilim va mening o‘rtamizdagi masofa

men va muammolarim orasidagi masofa bo‘lsa.

Bundan tashqari, لَوْ، عَسَى، هَلْ va لَعَلَّ yuklamalari yordamida ham orzu-istak maylidagi jummalarni tuzish mumkin:

أحمد حاشمی. جواهر فی المعانی والبیان والبدیع. بیروت لبنان. 2004. ص. 87. ²⁶

²⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020. - 4-juz. –B. 384.

هم دائما مشغولون. لو كان لديهم المزيد من الوقت.
bo‘lsa.)

5. النداء (Undov). Murojaat qilinayotgan kimsa yoki tushunchani anglatgan so‘z “undalma”, deyiladi. O‘zbek tilida undalma gap tarkibiga kirmaydi va o‘zbek tilida gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Arab nahvshunoslari arab tili grammatikasiga oid asarlarida undovni alohida bob sifatida olib, *البابُ المُنادى*, ya’ni “munodo bobi” nomi ostida sharh berib o‘tishgan. Xususan, Muhammad Muhyiddin Abdulhamid qalamiga mansub “At-tuhfatu as-saniyya” (“Oliy tuhfa”) nomli boshlang‘ich arab tili grammatikasiga oid darsligida shunday deyiladi:

so‘zi lug‘atda “mutloq yuzlanishi talab qilingan narsa yoki kimsa” degan ma’noni anglatib, istilohda esa يا va unga o‘xshash undov yuklamalarining birortasi orqali qaralishi so‘ralgan narsa yoki kimsaga nisbatan qo‘llaniladi²⁸.

Undov 8 ta yuklama orqali ifodalanadi:

أ، أي، يا، آ، أي، أيا، هيا، وآ

Chaqirilayotgan shaxs yoki narsaning so‘zlovchiga uzoq-yaqinligiga nisbatan undov yuklamalari ham ikki turga bo‘linadi:

- yaqinga nisbatan: أ (hamza)
- uzoqqa nisbatan: آ، أي، أيا، هيا، وآ

Ba’zida uzoqdagi shaxs yoki narsaga nisbatan ham أ (hamza) qo‘llanilishi mumkin. Masalan, ushbu ikki misrada shoir aslida uzoqda joylashgan Nu‘mon al-Arok nomli qishloqqa nisbatan nido qila turib, أ ni (hamzani) ishlatadi:

أَسْكَانُ نُعْمَانَ الْأَرَكَ تَيَقَّنُوا بِأَنْكُمْ فِي رَبْعِ قَلْبِي سَكَّانُ²⁹

Nu‘mon al-Arok aholisi, ishoning!

Siz mening yuragimning bir qismida yashaysiz.

Bundan ko‘zlangan maqsad, nido qilinayotgan shaxs yoki narsa qanchalar uzoqda bo‘lmasin, u so‘zlovchi uchun qalban yaqin ekanligiga ishora qilishdir. Xuddi shunday, yaqinda joylashgan shaxs yoki narsaga nisbatan يَأْيُهَا kabi undov yuklamalari ishlatilishi ham mumkin. Bunday qilish sabablaridan biri, so‘zlovchi oldidagi shaxs yoki narsa qanchalar yaqin bo‘lmasin, u hayolan boshqa zamon va makonda bo‘lishi yoki so‘zlovchi nutqiga unga nisbatan beparvolik munosabati ifoda etgan bo‘lishi mumkin. O‘rta asr arab shoiri Al-Barudiy tomonidan yozilgan quyidagi baytda ham يَأْيُهَا yuklamasi yaqindagi shaxsga nisbatan ishlatilgan:

يَأْيُهَا السَّادِرُ الْمُزَوَّرُ مِنْ صَلْفٍ مَهْلًا، فَإِنَّكَ بِالْأَيَّامِ مُنْخَدَعٌ

O‘z qadr-qimmatini bilan aldangan g‘ofil, sekinla!

Chunki bu kunlar bilan aldanib qolgan kishisan.

Undov gapdan ko‘zlangan ma’no nafaqat bir inson yoki predmetga nisbatan chaqiriq ma’nosida, balki yana bir qancha ikkilamchi ma’nolarda ham qo‘llanilishi kuzatiladi va ularni berilgan kontekst orqali tushunish mumkin³⁰:

²⁸ محمد محي الدين عبد الحميد. *الثَّحفة السنوية*. قطر. 2007. ص. 168.

²⁹ أحمد حاشمي. *جواهر في المعاني والبيان والبدیع*. بيروت لبنان. 2004. ص. 89.

³⁰ أحمد حاشمي. *جواهر في المعاني والبيان والبدیع*. بيروت لبنان. 2004. ص. 90.

25-Aprel, 2026-yil

I. **Ilhomlantirish** (الإغراء). Undov bir shaxsni yoki biror jamoani ruhlantirish va ularda kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otish uchun ham keng qo‘llaniladi. Bu turdagi chaqiruv, asosan, harbiy yurish oldidan askarlarni ruhlantirish uchun harbiy boshliqlar yoki davlat prezidenti tomonidan o‘z xalqiga qilgan murojaatlarida keng va samarali qo‘llaniladi. Quyida AQSHning sobiq prezidenti Jon Kennedining Vashingtondagi Inauguratsiya nutqidan (saylangan prezidentning qasamyod qabul qilish marosimidan keyingi nutqidan) parcha keltirilgan:

ولذلك، يا زملائي الأميركيين: لا تسألوا عما يمكن أن يفعله بلدكم من أجلكم، بل اسألوا ما الذي يمكنكم أن تفعلوه من أجل بلدكم³¹

(Shunday qilib, mening Amerikalik birodarlarim: mamlakatingiz siz uchun nima qila olishini so‘ramang - mamlakatingiz uchun nima qila olishingizni so‘rang.)

II. **Hasrat** (الندبة). Bu ma‘no, asosan, marsiyalarda ifodalanib, kishi vafot etgan yaqin insonini chaqirishi, unga xitob qilishida kuzatishimiz mumkin. Nafaqat marsiya, balki kishining biror sabab tufayli mahzun bo‘lishi ham hasratni ifoda etishi mumkin. Yuqorida keltirilgan undov yuklamalaridan **وَأُكْلَمَاسِي** ushbu ma‘noda ko‘proq qo‘llaniladi:

فَوَا عَجَبًا كَمَا يَدْعِي الْفَضْلَ نَاقِصٌ وَوَأُسْفًا كَمَا يَظْهَرُ النَّقْصُ فَاضِلٌ

Vo ajabo! Qancha ahmoqlar buyuk fazlga da‘vo qiladilar.

E afsus, qancha buyuklar noqislikni izhor qiladilar.

III. **Afsus-nadomat**. Undovning ushbu ma‘noda ishlatilishi aksariyat hollarda inson o‘z qilmishidan afsus qilishi tufayli o‘z-o‘ziga murojaat qila turib nido qilishida kuzatiladi: **يَا لَيْتَنِي كُنْتُ حَذْرًا فِي كَلَامِي** (E voh! Qani endi gapimda ehtiyotkor bo‘lsam edi!)

Yuqorida sanab o‘tilgan ma‘nolardan tashqari undov gap yordam so‘rash, taajjublanish, tanbeh berish, yodga olish, faxr va madh qilish kabi ikkilamchi ma‘nolarda ham qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Arab balog‘at ilmidagi jumla inshoiyya — rostlik yoki yolg‘onlik hukmi berilmaydigan gap turi — nutqiy muloqotning eng ta‘sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ahmad Hoshimiyning "Javohir ul-balog‘a" asari asosida tahlil qilingan ushbu maqola shuni ko‘rsatadiki, buyruq, inkor, so‘roq, orzu-istak va undov kabi inshoiy gap shakllari faqat grammatik hodisa bo‘lib qolmay, balki so‘zlovchining his-tuyg‘ularini, niyatini va munosabatini ifodalashning serqirra balog‘iy vositasiga aylanadi.

Har bir inshoiy gap turi o‘zining birlamchi ma‘nosidan tashqari — duo, iltimos, tahdid, maslahat, taajjub, hasrat, orzu va shu kabi — o‘nlab ikkilamchi ma‘nolarni anglatishi mumkin. Bu ma‘nolar faqat kontekst, intonatsiya va nutqiy vaziyat orqali to‘liq ochiladi. Qur‘oni Karim oyatlari va klassik arab she‘riyatidan keltirilgan misollar ushbu ko‘p ma‘nolilik hodisasining qanchalik chuqur ildiz otganligini yaqqol isbotlaydi.

Shunday qilib, jumla inshoiyya arab tilida nafaqat grammatik, balki psixologik va pragmatik jihatdan ham boy bo‘lgan nutqiy hodisa sifatida o‘zining alohida o‘rnini saqlab

³¹RG274, records of the White House Signal Agency. John F. Kennedy Presidential Library and Museum, Boston, Massachusetts.

kelgan va balog'at ilmini o'rganishda unga e'tibor qaratish zarurati bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. علي جارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البديع. القاهرة. 1999.
2. أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبديع. بيروت لبنان. 2004.
3. القرآن الكريم. مدينة العبور. 2001.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I J. –Namangan: Ibrat, 2009.
6. Abdul-Raof Hussein. Arabic Rhetoric: A Pragmatic Analysis. USA and Canada: - Routledge, 2006.